


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligining malaka talablari



Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi... ..	4
1.1.1.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70711301- Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari....	4
1.2.3.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy vazifalari	5
2.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) ta‘lim mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) ta‘lim mutaxassisligi bo‘yicha magistr uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:	8
2.3.3.	70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistr mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. 70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Oliy ta‘limning ushbu malaka talabi 70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma‘lumotli magistrlar tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar. Oliy ta‘lim muassasasi mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda malaka talab asosida o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.2. 70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligi - ishlab chiqarish-texnik bilim sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, barcha ta‘lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida, sifat boshqarishni amalga oshirish, sifat tizimini shakllantirish, mahsulot sifatini oshirib borish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, mahsulot va xizmatlarni sifatini nazorat qilish., qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi va sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdan iborat, korxonalaridagi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi va hududiy tarmoqlari;

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish idora (markaz)lari va akkreditlangan sinov laboratoriyalari;

- sifat va xavfsizlik sohasida siyosat olib boruvchi vazirlik tizimi tashkilotlari;

- mahsulotlarning sifati va xavfsizligi bo'yicha konsepsiyani ishlab chiqish;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarni sertifikatlashtirish idora (markaz)lari va akkreditlangan sinov laboratoriyalari;

- xalqaro standartlar asosida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish;

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish, sinflash (tovarlar nomenklaturasi), sifati nazorati;

- sanitariya-epidemiologiya markazlari;

- sifat va xavfsizlik sohasida siyosat olib boruvchi vazirlik tizimi tashkilotlari;

- mehnat faoliyatining barcha turlari bilan shug'ullanuvchi, turli mulkchilik shaklidagi

korxonalar.

- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

- loyihalashtirish jarayoni;

- xalqaro (ISO) standartlari asosida xavfsizlik menejment tizimlarini joriy etish.

1.2.3. 70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatsiyasi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

• Ilmiy-tadqiqot faoliyati;

• Ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;

• Tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

• Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;

• Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);

• Konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 70711301 – Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatsiyasi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari:

70711301 – Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatsiyasi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

– meva-sabzavot mahsulotlarini sifatini baholashda amaliy masalalarni yechish uchun yangi texnologiyalarni qo'llash;

– o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, usullar tadqiqot qilishi va ishlab chiqish;

– namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishi va ularning natijalariga ishlov berish;

– ilmiy va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

– o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va

bibliografiyalarni tuzish;

– ilmiy seminarlarda ishtirok etish;

– ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash;

– innovatsion ko'rgazma va yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etish;

-innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

- bajarilayotgan tajriba - konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik,
- informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqishi va tadqiqot qilishi;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish malakalariga ega bo'lishi;
- mehnat munosabatlariga yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

70711301-Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari) Magistratura bitiruvchilari magistr akademik darajasini olgandan so'ng oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ITIlarda katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishi mumkin.

2. 70711301-Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;

- mahsulotlarni saralash;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining buyurtmalarini umumlashtirish yo'li orqali qayta ishlangan mahsulotlarga bo'lgan talabning har yilgi bashoratlarini shakllantirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashda resurstejamkor va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni bilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarini rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishni bilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish;
- meva-sabzavotlar, don va dala mahsulotlarini saqlash jarayonlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish;
- qayta ishlash jarayonlariga zamonaviy va resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash;
- ishlab chiqarish faoliyatida boshqarish sifatini nazorat qilish va tatbiq etish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarini rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishni bilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishni bilish;
- kasb vazifalarini avtomatlashtirish va kompyuterda modellashtirish metodlarini, eng maqbul yechimlar topishning oqilona usullarini egallagan bo'lishi;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va ilmiy jamoalarni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullarini egallagan bo'lishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabanning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – mutaxassisligi bo'yicha olingan bilimlarni ishlab chiqarish korxonalarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot mavzusi bo'yicha tegishli ma'lumotlarni olish, tegishli tajribalar o'tkazish.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Mahsulotlar havfsizligi va ularning sertifikatlash mutaxassisi, tadqiqotchi-pedagog

2.3.2. 70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrlar uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70711301 - Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatlashi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari) magistrlar mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MFM2440	Majburiy fanlar	1380	46	1,2,3
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	MXSEM1404	Mahsulotlar xavfsizligi va sifat ekspertizasi	120	4	1
1.04	MSLSOAM1406	Mahsulot sinov laboratoriyalari va sertifikatlash-tirish organlari akkreditatsiyasi	180	6	1
1.05	MXMBM1406	Mahsulotlar xavfsizligi va muvofiqlikni baholash	180	6	2
1.06	KSBNAM2404	Kvalimetriya va sifatni boshqarishning nazariy asoslari	120	4	3
1.07	TGTM2406	gigienasi va toksikologiyasi	180	6	3
1.08	MSXXTMBM2406	Mahsulotlar sifati va xavfsizligini texnik, me'yoriy-huquqiy boshqarish	180	6	3
1.09	QXOMSTBM1406	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari sifatini baholash	180	6	1
2.00		Tanlov fanlar	420	14	
2.00		Tanlov fanlar 3 ta			2,3

	IF2460	Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
	ITIMD2436	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	
	IPI2412	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	
	IATO2412	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	
		Jami	3600	46	
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 002:389.6

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch suzlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, mahsulot sifati tizimi, xavfsizligi, o'lchash vositalari, o'lchash texnikasi, me'yoriy hujjatlar, me'yoriy nazorat, mahsulot sifati nazorati, pedagogika, psixologiya, kvalimetriya, tovarlar tadqiqoti, fizik-kimyoviy usullar, tovarlar ekspertizasi, kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv sikli, metrologiya, ta'lim jarayoni, kadrlar iste'molchilari, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti



Birinchi prorektor S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07

M.O'

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor SH.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'



I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor S.M.Turabdjano

2023 yil « 17 » 07

M.O'



“O'zbekiston milliy metrologiya instituti”

DK

direktori L.F.Saidoripov

2023 yil « 18 » 07

M.O'



“Standartlashtirish va sifatni boshqarish ilmiy maslahat markazi” MCHJ

direktori N.M.Ergasheva

2023 yil « 19 » 07

M.O'



“Qishloq xo'jaligida standartlashtirish markazi” DUK

direktori A.T.Isaqov

2023 yil « 20 » 07

M.O'



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

70711301–Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Toshkent davlat texnika universiteti rektori, professor S.M.Turobjonov, Toshkent kimyo texnologiya instituti rektori, professor B.Sh.Usmonov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi hamda magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv reja si mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70711301 – Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor



S.Islamov

Toshkent davlat texnika universiteti
rektori, professor



S.M.Turobjonov

“Qishloq xo‘jaligida standartlashtirish
markazi” DUK direktori



A.T.Isaqov